

**““Sharg‘unko‘mir” AJ
monopoliyaga qarshi
kurashish bo‘yicha
komplaens-nazorat tizimini
joriy qilish va uning ishlash
tartibi to‘g‘risidagi”
Nizom**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom “Sharg‘unko‘mir”AJ Boshqaruv apparati hamda tarkibidagi bo‘lim, xizmat va uchastkalarda monopoliyaga qarshi komplaens nazorat tizimini joriy etish, uning faoliyatini yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalanilgan:

monopoliyaga qarshi kurashish organi-O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplaens nazorat-faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar xavfini baholash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va tartib-taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplaens nazorat to‘g‘risidagi hisobot-raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilishni tashkil etish va uning natijalari haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat yoxud hujjatlar yig‘indisi;

vakolatli shaxs (biriktirilgan xodim yoxud ichki nazorat tuzilmasi xodimi)-Komplaens-nazorat xizmati (keyingi o‘rinlarda -xizmat);

savdolar-tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan tartib-taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar “Sharg‘unko‘mir”AJda monopoliyaga qarshi komplaens-nazorattizimining asosiy vazifalari hisoblanadi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash, baholash hamda ularni boshqarish;

“Sharg‘unko‘mir”AJda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlikni ta‘minlash, monitoring va nazorat qilish;

“Sharg‘unko‘mir”AJning faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda mansabdor shaxslar (rahbarlar) tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirishning oldini olish;

“Sharg‘unko‘mir”AJda monopoliyaga qarshi komplaens -nazorat tizimining ishlash samaradorligini baholash va ta‘minlash;

“Sharg‘unko‘mir”AJ xodimlarining ish faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish maqsadida, xodimlarni ushbu yo‘nalish hujjatlari talablari buzilishining oldini olish maqsadida, xodimlarni ushbu yo‘nalish bo‘yicha muntazam ravishda o‘qitish, bilim va malakalarini oshirish, ularda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish.

2-bob. Jamiyat boshqaruv apparatida monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimini tashkil etish

4. Jamiyat boshqaruv apparatida monopoliyaga qarshi komplaens nazorat tizimini joriy etish va takomillashtirish bo‘yicha Komplaens-nazorat xizmati quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobat va (yoki) iste‘molichlarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki normativ hujjatlarni xatlovdan o‘tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

raqobatni cheklashga olib kelishi mumkin bo‘lgan omillarni, xavf-xatarlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining faoliyat yuritishi bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha jamiyat boshqaruv apparati faoliyatini muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilganligi faktlari bo‘yicha ichki o‘rganish va xizmat tekshiruvlarini tashkil etish;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo‘yicha o‘zaro axborot almashish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo‘ljallangan “Yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqish ishlarini muvofiqlashtirish va amaldagi oshirilishini nazorat qilish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari o‘zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, korxonalar ichki normativ hujjatlariga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

jamiyat boshqaruv apparatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini xavf-xatarlarini aniqlash va baholash ishlarini tashkillashtirish, muvofiqlashtirish, xavf-xatarlar bilan bog‘liq holatlar hisobini (reyestrini) yuritish

ishlariga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, yuzaga kelishi ehtimollarini baholash ishlarini tashkillashtirish;

jamiyat boshqaruv apparati tomonidan ularning faoliyatida raqobatni cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, baholash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflarni umumlashtirish;

“Sharh‘unko‘mir”AJ xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

Xodimlarni boshqarish bo'limi hamda manfaatdor boshqa bo'limga jamiyat xodimlarini monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar, seminarlar, vebinarlar va boshqa shakldagi o'qitish va malaka oshirish tadbirlarini o'tkazish ishlarida yordam berish;

“Sharh‘unko‘mir”AJ tomonidan qabul qilinadigan ichki normativ hujjatlarning loyihalarini o'rganish va raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda Bosh direktorga takliflar kiritish;

“Sharh‘unko‘mir”AJ boshqaruv apparati tomonidan monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining joriy etilishi va samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil etish;

Yil yakuni bilan birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining holati haqidagi hisobotni bosh direktorga tasdiqlatish uchun taqdim etish.

5. Komplaens-nazorat xizmatini o'z faoliyatini amalga oshirishda bevosita va to'g'ridan to'g'ri Bosh direktorga bo'ysunadi va faqat unga hisobdor bo'ladi.

6. Xizmatga hamda uning xodimlariga ushbu Nizom va boshqa qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifa va topshiriqlar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish holatlarini aniqlash

7. “Sharh‘unko‘mir”AJda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavf-xatarlarini aniqlash maqsadida, korxonaga mutasaddi bo'limlari bilan birgalikda Komplaens-nazorat xizmati tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

jamiyat raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoxud raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida, Jamiyatning ichki normativ hujjatlarni o'rganish ishlarini tashkillashtirish, yalpi xatlovdan o'tkazish to'g'risida bosh direktorga taklif kiritish;

davlat xaridlariga (tenderlar, tanlovlar hamda birja savdolari) nisbatan qo‘yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilishini, shuningdek raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini tahlil qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

aniqlangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarini qo‘llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish ishlarini muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavf-xatarlarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash ishlarida ishtirok etish;

jamiyat faoliyatida vujudga kelish ehtimoli yuqori bo‘lgan monopoliyaga qarshi xavf-xatarlarni tahlil qilish va ularning ro‘yxatini xatarlar xaritasi shaklida tuzish ishlariga umumiy rahbarlik qilish hamda jamiyatning bu boradagi ishlarini muvofiqlashtirish;

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash ishlarini tashkillashtirish va nazorat qilish;

“Sharg‘unko‘mir”AJning faoliyati xususiyatidan kelib chiqib hamda Bosh direktor bilan kelishgan holda monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining samarali ishlashini ta‘minlash va takomillashtirishga qaratilgan boshqa chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

8. Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavf-xatarlarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to‘g‘risidagi jamiyatning hisoboti va axborotlari monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat haqidagi jamiyatning jamlanma (umumlashtirilgan hisoboti) Xizmat tomonidan ishlab chiqiladi.

4-bob. Jamiyat boshqaruv apparatida Monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining ishlash samaradorligini baholash

9. “Sharg‘unko‘mir”AJda monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan qo‘llanma (metodika) asosida Jamiyat Ishchi guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

10. “Sharg‘unko‘mir”AJ boshqaruv apparatida monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimini joriy etish holati hamda erishilgan asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari har bir bo‘limdan tegishli qismida baholanadi hamda umumlashtirish

va Jamiyatning jamlanma hisobotini tayyorlash uchun xizmatga taqdim qilinadi (yil yakuni bo'yicha bir marotaba fevral oyining birinchi sanasiga qadar).

11. "Sharg'unko'mir" AJda monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining ishlash samardorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarga erishilgani to'g'risidagi tegishli bo'lim tomonidan tayyorlangan hisobotlar, tasdiqlovchi hujjatlari bilan birgalikda Komplaens-nazorat xizmatiga Jamiyatning jamlanma (umumlashtirilgan) hisobotlarini tayyorlash uchun taqdim qilinadi.

5-bob. Jamiyat boshqaruv apparatining Monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat haqidagi hisoboti

12. Jamiyat boshqaruv apparatining Monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat haqidagi hisobotlari quyidagi ma'lumot va axborotlarni o'zida aks ettirishi lozim:

raqobat to'g'risidagi hamda monopoliyaga qarshi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavf-xatarlari bo'yicha baholash ishlarining natijalari hamda aniqlangan xavf-xatarlar ta'sirini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarining bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishganlik holati haqidagi dolzarb va ishonchli axborot.

13. Bosh direktor tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplaens-nazorat tizimi holati bo'yicha umumiy ma'lumotlardan iborat bo'lgan hisobot Jamiyatning internet tarmog'idagi rasmiy veb-saytida Axborot xizmati tomonidan joylashtiriladi hamda besh ish kuni mobaynida monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga yuboriladi.

6-bob. Yakuniy qoidalar.

14. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, raqobat to'g'risidagi, monopoliyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga, yoxud Jamiyatning ichki normativ hujjatlariga bevosita ta'sir etuvchi o'zgarish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, shuningdek ilg'or xalqaro amaliyot o'zgarganda zaruratga ko'ra qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Jamiyatning Komplaens-nazorat xizmati mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun mas'ul hisoblanadi.

15. Jamiyatda ishlovchi barcha xodimlar, ularning egallab turgan mansab/xizmat lavozimi, ish staji yoxud boshqa omillardan qat'iy nazar ushbu Nizomning qoida va talablariga og'ishmay rioya qilish uchun mas'ul hisoblanadilar.